

# МАКТАВ DARSLIKALARIDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNI TUSHUNTIRISHGA OID TOPSHIRIQLAR TAHLILI

Xotamova Mohinur

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat

o‘zbek tili va adabiyoti universiteti 3-bosqich talabasi

## **ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada tilshunoslikda alohida o‘ringa ega bo‘lib kelayotgan frazeologizimlarni umum ta’lim maktablarida o‘qitishga oid mashq va topshiriqlar metodika orqali sharhlangan.

**Kalit so‘zlar:** Ibora, nutq, frazeologiya, ta’lim-tarbiya, xalq ijodi.

## **АННОТАЦИЯ**

Это статья занимает особое место в лингвистике. Упражнения и задания связанные с преподаванием фразеологии в общеобразовательной школе интерпретируются посредством методики.

**Ключевые слова.** Фраза, речь, Фразеология, Образование, Народное творчество

## **ABSTRACT**

This article has a special place in linguistics exercises and tasks related to teaching phraseological unis in secondary schools are explained through methodology.

**Key words:** Expression, speech phraseology, education, folk creativity.

Barchamizga ma’lumki, til kishilar o‘rtasidagi eng muhim aloqa vositasi, jamiyat tafakkurining rivojlanishini ta’minlovchi, avloddan avlodga ma’daniy-manaviy shu bilan birga tarixiy an’analarni yetkazuvchi, asosiy fikr almashinish quroli hisoblanadi.

Nutq jarayonida fikrimizni faqat so‘zlar yordamida emas balki, ikki yoki undan ortiq so‘zlarning barqaror bog‘lanishidan hosil bo‘lgan, nutqqa tayyor holda kirib keladigan birliklardan ham foydalanamiz. Bu birliklar nutqimizni tasvirlabgina qolmasdan balki uning ma’noli va mazmunli, lo‘nda, bo‘yoq dor tarzda tasvirlaydi.

Umum ta’lim maktabalarida o‘quvchilarga bunday til birliklarini tushunarli va soda tarzda o‘qitish, nutqiga olib kirish, o‘z nutqida ko‘p foydalanadigan iboralarning ma’no –mohiyatini tushuntirishga qaratilgan.

Til va jamiyat ta’sirlashuvi haqida so‘z borar ekan, tilning jamiyatga qanday ta’sir etishini ham tushuntirmoq lozim. Mutaxassislar to‘g‘ri ta’kidlaganidek, tilning jamiyatga ta’siri jamiyatning tilga ta’siriga nisbatan kam o‘rganilgan, hatto bunday ta’sirlashuvga shubha bilan qarash ham bor. Bizningcha,

tafakkur quroli bo‘lgan vositaning jamiyatga ta’sir ko‘rsatmasligining o‘zi shubhali, chunki til jamiyatni muntazam harakatlantirib turadi va bu tarz ta’sirlashuvning eng ibtidoiy aksi uning axborotni shakllantirish va uzatish vazifasida ko‘rinadi. Jamiyatning tilga ta’siri naqd lisoniy natijalarda ko‘rinadi, shu

sababli, bu tarz ta’sirlashuv shubha uyg‘otmaydi, bir qarashdayoq ta’sirlashuv natijalarini ilg‘ash mumkin bo‘ladi. Tilning jamiyatga ta’siri natijalari tilshunos qayd qila biladigan til materiallarida ifoda topmaydi, balki ijtimoiy hayotning o‘zida bo‘y ko‘rsatadi. Aniq lisoniy material orqali dalillay olinmagani tilning jamiyatga ta’siri mexanizmlarining ochilmay qolishiga olib kelgan. Masalan, adabiy tilning jamiyatga ta’siri, avvalo, milliy birlikni ta’minlashida, qolaversa,

ommaviy savodxonlikni shakllantirish va yaxshilashda, ilm-fanni rivojlantirish va madaniyatni yuksaltirishida, ta'lim-tarbiyada ko'rindi. Sanoqni yana davom

ettirish mumkin. Umuman, jamiyatda axborot uzatilar ekan, unda tilning ishtirok qilmasligi, ta'siri bo'lmasligi mumkin emas.

Frazeologiya tilning mustaqil birligi sifatida XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab maxsus o'r ganilib kelinmoqda. Frazeologiya bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarining takomiliga o'zbek frazeologlaridan SH. Rahmatullayev, M. Umarxo'jayev, M. Sodiqova, I. Royzenzon, Y. Avaliani, E. Begmatov, A. Mamatov va B. Yo'ldoshevlar o'z hissalarini qo'shgan [3;3].

Hech bir so'z, hech bir ibora bekor aytilmaydi. Og'izdan og'izga o'tib, so'zlar almashadi, tushib qoladi. Harflar o'zgaradi va tanib bo'lmas holga keladi. Agar biz ko'proq izlasak, so'zning so'ziga qalb qulog'imizni tutsak, tilimizda majhul ibora qolmas. Og'ayni chalish ham besabab aytilmagan. Maqol aslida; og'a-ini – bir juft kalish bo'lishi kerak. Kalishning ikki poyi bir-birisiz butun emas. Og'a-ini ham shundoq.

Og'a-ini, aslida, ikkita so'z. Aka-uka degani. Bora-bora bu ikki so'z qisqarib, bir so'zga aylandi. O'rtoq, oshna ma'nosini bildiruvchi og 'ayni holiga keldi. Og'ayni bir kishini bildirgach, juft so'zga hojat qolmadi. Endi "Og'ayni chalish-bir poy kalish" deyiladigan bo ldi. Hozirda bir poy kalish ham iste'moldan chiqdi, hisob. Og'ayni chalishning o'zi qoldi va iboraga aylandi. [E. Vohidov]

Ushbu matn asosida berilgan topshiriqlar asosida biz o'quvchilarda iboraning asl ma'no jihatlarini tushunish uni nutqi davomida qo'llay olish, shuningdek iboralarning odiy so'zga nisbatan ta'sir doirasi kuchliligin o'rgatish maqsad qilingan. O'zbek xalqining nutqi juda boy bo'lib, nutqimiz orasida beixtiyor turg'in birikmalardan (ibora, maqol, hikmatli so'zlar, iboralar) foydalanamiz.

Inson o‘z ongli hayoti ibtidosidan nboslab mehnatm bilan shug‘ullanib kelmoqda.

Mehnat jarayonida esa ular xilma xil ishlarni baharib kelgan. Uning mehnat faoliyatida bajarilgan u yoki bu xatti-harakatlar lisiniy assosatsiatsiyalarni paydo qiladi. Shu tufayli biror fikirni obrazli ifodalashga ehtiyoj seziladi. Ayni shu holat kishilarning milliy xarakter va turmush tarziga aloqador bo‘lgan iboralarning shakillaniahuga sababchi bo‘lgan . Milliy xarakter bilan bog‘liq iboralar xalqning tabiy yashash sharoitlari, turmush tarzi va diniy an’analari bilan uzviy bog‘liqdir. Hamma xalqlarda ham vatan tuyg‘usi, uni sevish, ardoqlash his-tuyg‘usi bor. Bu kabi fiziologik holatlar emotsiional munosabatlarni ijobiy yoki salbiy tilda zuhur etish ixcham va chuqurma’noli iboralar orqali ifodalanadi va ular ana shunday ehtiyojlar asosida shakllanadi.

Olimlarning fikricha, har bir inson hayoti davomida o‘z tilidagi 800ga yaqin maqol, metal, hikmatli so‘z yoki iboralar haqida tushunchaga ega bo‘lar ekan [3;3].

O‘zbek xalqi purma’no so‘zga, o‘git-u naqillarga boy xalq sanaladi. Ajdodlarimizning azaldan o‘z hayotiy muammolarini-mehnat mashaqqati, g‘am-anduhi, rohat-farog‘ati, muvaffaqiyat va mag‘lubiyati, rasm-rusimlari, hamma-hamasini maqol va matallarda, naql va barqaror iboralarda ko‘zgudagidek aks ettirib keladi. Xalqning til boyligi- uning bo‘yoqdor, serjilo leksikasining frazeologiya qatlaming boyligi bilan ham o‘lchanadi. O‘zbek tili- ona tilimizning juda boy, ma’nodor, jozibali, va rang-barangligi Alisher Navoiy zamonidan isbotlangan. [1;29].

Iboralar tilni, uning mazmunini yanada boyituvchi manaviy xazinadir. Ular lingvokulturologiyaning asosiy obyektlaridan biri sanalgan barqaror birikma bo‘lib lingvokulturologik obyekt sifatida millatning madaniyatini o‘zida jamlovchi til birligi sanaladi.

Iboralar yani frazeologizmlar tilshunoslikda kata bir bo‘lim hisoblanadi. U o‘quvchilarga tushuntirib berish uchun o‘qtuvchiga ma’lum bir metodlar (savol, topshiriq, metodik o‘yinlar ) yordam beradi. Quyida tuzilgan topshiriqlar ham shunday bir maqsad asosida yaratilgan.

**Topshiriq:** 1. Berilgan iboralarni ko‘chiring. Ularning sinonimi va antonimini topib yozing. Quruq qo‘l bilan, yoqasini ushlamoq, qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan, kapalagi uchmoq, dunyodan ko‘z yummoq, yumshoq supurgi.

Masalan;

<u>Iboralarga misollar</u>	<u>Antonim</u>	<u>Sinonim</u>	<u>Bir so‘zga teng kelishi</u>

Tilidan bol tommoq, tili shirin- tilidan zahar tommoq.


Og‘zi qulog‘ida, kapalagi uchmoq, qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan


Yuqoridagi topshiriq gramatik bilimlarga tayangan holda bajariladigan topshiriq hisoblanadi. O‘quvchilardan iboralar va ularning antonim va sinonimlari haqidagi nazariy ma’lumotni talab qiladi. Shuning uchun o‘qtuvchi bu topshiriqni bajartirishdan oldin ularga oid nazariy ma’lumotni berib o‘tishi kerak bo‘ladi.

**2.** Tarozining bir pallasiga oddiy so‘zlarni, ikkinchi pallasiga iboralarni qo‘ying. Qaysi tomonning qanday “yuk bosishi” ga e’tibor qarating.

Iboralar ishtirokida gaplar tuzing, o‘rniga so‘zlarni qo‘yib ko‘ring.

Hang-mang bo‘lmoq, ko‘zi o‘ynoqi, o‘zidan ketmoq, musichaday beozor, usti yaltiroq, ichi qaltiroq.





Bu topshirig'imiz o'quvchilarda so'z va iboraning farqiga borishni o'rgatadi. Shu bilan birgalikda qay birining ta'sir doirasi kuchliroq ekanligini tushunishiga yordam beradi.

Frazeologik iboralarni qo'llashning yana bir afzalligi shundaki, ular bizga tilda yanada ravon va tabiiyroq ovoz berishimizga yordam beradi. Agar biz ushbu iboralarni to'g'ri va o'rinni ishlatsak, biz tilni yaxshi bilishimizni va muloqot qobilyatlarimizda qulay va ishonchli ekanligimizni ko'rsatishimiz mumkin. Bu bizga boshqalar bilan o'zaro munosabatlarimizda ishonchlilik va obro'-e'tiborni oshirishga yordam beradi. Bu iboralarning aksariyati ma'lum bir madaniyatning tarixi, an'analari va qadriyatlaridan kelib chiqqan bo'lib, ulardan foydalanish orqali o'sha tilda so'zlashuvchi xalqning tafakkuri, dunyoqarashi haqida tushunchaga ega bo'lishimiz mumkin.

Frazeologik iboralarni o'rganish ham til ko'nikmalarimizni yaxshilashga va so'z boyligimizni kengaytirishga yordam beradi. Ushbu iboralarni o'rganish va ishlatish orqali biz yangi so'z va iboralarni o'rganish va ishlatish orqali biz yangi so'z va iboralarni o'rganishimiz, shuningdek, so'zlarning kontekstda qanday ishlatilishini chuqurroq tushunishimiz mumkin. Bu bizning til qobiliyatimizni boyitadi va bizni yanada samarali muloqotchilarga aylantiradi.

### **3. Quyidagi iboralarni ko'chiring, qanday vaziyatda qo'llanishini sharhlang.**

Qush uyasida ko‘rganini qiladi; sichqonning ini ming tanga; sen bog‘dan kelsang, u tog‘dan keladi; og‘zi qulog‘ida.

Namuna; Qush uyasida ko‘rganini qiladi.

Odob- eng katta boylik. Odobni oilada o‘rganadilar, chunki qush uyasida ko‘rganini qiladi.

Bu topshiriq o‘quvchilarda iboraning tag ma’nosini anglaganligini tekshiruvchi mashq hisoblanadi. Iboraning ma’nosini anglagan o‘quvchigina uni o‘z nutqida bemalol qo‘llay olishi mumkin. Iboralar yillar davomida shakillanib shu ko‘rinishga kelib qolgan va qotgan birikmalar hisoblanadi. Nutq jarayonida bu birliklardan ko‘p foydalanadigan insonlarning nutqi boshqalarnikiga nisbatan boy hisoblanadi.

**4. Uyga vazifa.** Inson tana a’zolari ishtirok etgan iboralarni toping. Ular ishtirokida 6 ta gap yozing.

Uyga beriladigan topshiriq dars davomida o‘qtuvchi o‘quvchilarga iboralar haqida bergen bilimlarga tayangan holda mustaqil bajarilishi kerak. Bunda iboralarda ko‘p qo‘llaniladigan inson tana azolari ishtirok etgan iboralarni iboralar lug‘atidan topib chiqishlari kerak bo‘ladi. Bu topshiriqni bajarish davomida o‘quvchilar “O‘zbek tili frazeologik lug‘ati” bilan ham tanishishadi.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, xalqimizda yosh avlodni odob –axloqqa, yaxshilikka undovchi iboralar ko’plab uchraydi. Bunday iboralardan hayotda foydalanish kishilarning milliy xarakterini ochib beradi. Xalqimiz bu kabi til birliklarida ham farzandlarni tarbiyaga va kamolotga undaydi. O‘zbek millatining madaniyatini tilda namoyon bo‘lishi hamda ifodalananishi tilimizda yanada so‘z boyligining oshishiga va rivojlanishiga sabab bo‘ladi.

Quyida yaratilgan topshiriqlar ham shu maqsadni ko‘zlab yaratilgan bo‘lib, iboralarni o‘quvchilarga o‘rgatish yo‘lida yaratilgan hisoblanadi. Bu topshiriqlar Toshkent shahri Chilonzor tumanidagi 281-maktabdagi 5-6-sinflar kesimida sinovdan

o'tkazildi. 5-sinf o'quvchilaridan 26 ta o'quvchi qatnashni ulardan topshiriqni to'laqonli bajargan va mavzuni yaxshi o'zlashtirgan o'quvchilar soni 19 tani tashkil etadi. O'zlashtrish darajasi past o'quvchilar soni 7 tani tashkil etadi. Bu o'quvchilar bilan alohida shug'ullanildi, mavzu va topshiriqlar birqalikda bajarildi. 6- sinflar orasida bajarilganida o'zlashtirish darajasi 5- sinf o'quvchilariga nisbatan yaxshi yakunlandi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Rahmatullayev. Sh "O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati". - O'qituvchi, 1978.
2. Qosimova A. "O'zbek va ingliz frazeologiyasi". - Scientific progress, 2021. ("Uzbek and English phraseology").
3. Urokov Sh, Isayeva M. "Linvokulturologik iboralar va ularning semantik ma'nolari". - "Sharq tillarini o'qitishning dolzarb masalalari" mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya, 2022. ("Linvocultural expressions and their semantic meanings").
4. Kaxarov, Q., & Dehqanova, D. (2024). O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA IBORALARING QO'LLANISHI. Farg'onha Davlat Universiteti, 30(1), 71. Retrieved from <https://journal.fdu.uz/index.php/sjfsu/article/view/35565>. Qahramanova D. "O'zbek va ingliz EURASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES, PHILOSOPHY AND CULTURE Innovative Academy Research Support Center UIF = 8.2 | SJIF = 8.165 [www.in-academy.uz](http://www.in-academy.uz) tillari idiomalarini taqqoslashning lingual tahlili". - Ustozlar uchun, 2023. ("Lingual analysis of the comparison of Uzbek and English idioms").

5. M. Sherbo'tayeva, O'zbek tilida "Lingvokulturemalar" va ularning lingvokulturologik tadqiqi. - A.: Andijon, 2014. - B. 29.

6. Sh. Rahmatullayev, O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. - T.: O'qtuvchi, 1978. - B.28.